

ARCHA UNSIMON QURTI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

To'raboyev Mirzaraxmat Baxtiyor o'g'li

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
O'simliklarni himoya qilish kafedrasida assistenti*

Sobirov Saidakbar Mahmudbek o'g'li

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
O'simliklarni himoya qilish fakulteti 2-34 gurux talabasi*

Annotatsiya: O'simliklar dunyosining xar bir turi vakillarida bo'lganidek, madaniy daraxt sifatida hammamizga tanish bo'lmish archa daraxtiga ham zararkunandalar tushadi. Hozirda dolzarb masalalardan bo'lmish "archa unsimon" qurtiga qarshi kurash muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada "archa unsimon" qurtiga qarshi kurash usullari hamda bu zararkunanda haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Archa unsimon qurti, zararkunandalarga kurash choralari, zararkunandalarni tarqalishi.

"Archa unsimon" qurti zararkunandaning lichinka va tuxumlari archaning novdalari va barglarini so'rib zarar yetkazadi va ular barcha yer ustki qismlari bilan oziqlanadi. Kattaligi 2 - 3 millimetr bo'lgan bu qurt sarg'ish, qizg'ish, kulrang tusda bo'lib, mart - aprel oylarida paydo bo'ladi. Ularning tuxum qo'yishi may - iyun oylarida kuzatilib, o'rtacha 280 tagacha tuxum qo'yadi. "Archa unsimon" qurti avvalo, ichki karantin ahamiyatga moyillik zararkunanda sifatida ro'yxatga olinib, qurt tarqalgan joylardan archa ko'chatlarini boshqa joyga ko'chirish mumkin emas. Zararkunanda bilan jiddiy shikastlanib qurish holatiga kelib qolganlarini kesib, unsimon qurt keng tarqalmasligi uchun ularni o'sha joyning o'zida yoqish kerak. Qarshi kurashda kimyoviy preparatlardan: "Bi -58" 40% em.k, "Bagira" 20% em.k, va "Atilla" 5% em.k dan foydalanish tavsiya qilinadi. Ushbu preparatlarni zararkunandalarning paydo bo'lishi bilan birinchi ishlov o'tkaziladi va zararkunanda butkul yo'qolguncha har o'n besh kunda kimyoviy ishlovlar olib borish kerak. Fitosanitariya nazorati kuchaytirilib, qishloq xo'jaligi ekinlari archaning novdalari va barglarini so'rib zarar yetkazadigan "Archa unsimon" qurtidan samarali ximoya qilish va manzarali daraxtlarni saqlab qolish choralari ko'rilmogda. Ish jarayonida soxaning malakali mutaxassislari tomonidan "Archa unsimon" qurtlariga qarshi kurashish uchun barcha choralar ko'rilib, tavsiyalar berib borilmogda.

Archa unsimon qurtini lotincha nomi (PSEUDOCOCCUS VOVAE NASS.). Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti jadal ravishda rivojlanib borayotgan bir paytda tabiiy biotsenozlarda xam o'zgarishlar kuzatilmogda. Xukumatimiz

tomonidan ekologik barqarorlikni saqlash, ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va o'rmonchilik soxalarini rivojlantirishga aloxida e'tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, manzarali daraxtlarni ekish va ko'paytirish bioxilma – xillikni asrashda aloxida ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda igna bargli daraxtlarni introduksiya qilish ishlari kengayib borayotganligi bilan birga, ularning muxofazasi xam kun tartibidagi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Igna bargli daraxtlarning mo'tadil o'sib rivojlanishiga archa unsimon qurti xam sezilarli tasir o'tkazadi.

“Archa unsimon” qurti adventiv xasharotlar sirasiga kiradi. Ilmiy manbaalarga ko'ra, ayni bu xasharot dastlab, 1953 yili Tojikistonda archa zararkunandasi sifatida qayd qilingan. O'zbekistonda ushbu zararkunanda keyingi yillarda Surxondaryo viloyati orqali, boshqa joylarga tarqalmoqda.

2018-2021 yillar davomida Andijon viloyatining ayrim xududlarida archa unsimon qurtining biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Materiallarni yig'ish va saqlash Borxsenius uslubi asosida bajarildi.

Pseudococcus vovae Nass. – yashash tarziga ko'ra tekinox'r. Oziqlanish xususiyatiga ko'ra monofag xisoblanib, o'simlikning ignabarglarida va shoxlarida oziqlanadi. Asosiy ozuqa o'simligi – *Juniperus L.* sanaladi.

“Archa unsimon” qurti birinchi avlodining rivojlanishi Andijon sharoitida mart oylarining 2- dekadasi to'g'ri keladi. Qishlab chiqqan lichinkalar baxorda oziqlanishga tushgach, ularning gavdasida ba'zi o'zgarishlar sodir bo'lishi kuzatiladi. Aprel oyining 2-3 dekadasidagi kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, bu davrga kelib, qishlab chiqqan lichinkalar o'zlari ishlab chiqargan maxsus ipchalardan tashkil topgan momiq ichiga tuxum qo'yishni boshlaydi. Tadqiqotlar laboratoriya sharoitida o'rganilganda urg'ochi individ xosil qilgan momiq ichida 57 tagacha tuxumlar qo'yilgani aniqlandi. Tuxum qo'yishni boshlagan urg'ochilar binokulyar mikroskop ostida yorib ko'rilganda esa tuxum naychalarida 170 – 178 tagacha tuxumlar rivojlanayotgani kuzatiladi. Tuxum qo'yish davridagi urg'ochilari qoramtir jigarrangda. Qo'yilgan tuxumlarning chetlari och jigarrang, o'rta qismlari och sarg'imir tusda ko'rinadi.

Dastlabki chiqqan daydi lichinkalar igna bargli daraxtlarning shoxlarida va igna barglarida yirik koloniya shaklida daraxtlarning shoxlarida va igna barglarida yirik koloniyalar shaklida oziqlanadi. Yoz mavsumining xarorat ko'tarilgan davrlarida ularning soni kamayganligini kuzatish mumkin. Avgust oyining 2-3-dekadasiidan boshlab yetilgan tuxumlarini qo'yishni boshlaydi. Sentabr oyiga o'tib archa unsimon qurti yana zo'r berib ko'payish va kichik – kichik koloniyalarini xosil qilganligi kuzatiladi. Olingan namunalar laboratoriya sharoitida tekshirilganda bu davrda oziqlanayotgan lichinkalarni, daraxt shoxlari va barglariga qo'yilgan tuxumlarinni

kuzatish mumkin. Olingan namunalarning 10 donasi laboratoriya sharoitida yorib ko'rilganda 5 tasida rivojlangan tuxumlar qo'yilib bo'linganligi va qolgan 5 tasida 19 tadan 76 tagacha tuxumlar rivojlangani kuzatildi.

Kuzatishlarimizda archa unsimon qurti Andijon viloyati sharoitida yiliga ikki avlod berib ko'payadi. Adabiyot ma'lumotlarida archa unsimon qurtining 1-2 yoshli lichinkalari daraxt tanasi yoriqlari, yirik shoxlarida qishlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Navoiy viloyati O'simliklar karantini va ximoyasi Konimex tumani agronom inspektori M.Ubaydullayev, F.Umurova. "Mediya makon" gazetasining rasmiy sayti.
2. Borchsenius N.S. O'rmon daraxtlariga yordam berish uchun qurtlar va o'rmalovchi hasharotlarni yig'ish va o'rganish boshpana kamarlarida ishlash. – M – L.: nashriyot uyi SSSR Fanlar akademiyasi, 1950 – 152 b.
3. Sh.Nurmatov, A.Saddullayev, B.Hasanov, E.Xolmurodov, B.Boltayev, Sultonov R., Murodov B., Nafasov Z.Igna va yaproq bargli manzarali O'rmon daraxtlarini zararkunanda, kasalliklardan himoya qilish bo'yicha tavsiyanoma. – Toshkent.:2013. – 60 b.